

SAIDA ZUNNUNOVA SHE'RLARIDAGI SAMIMIYLIK

To'xtarova Sevinch O'rol qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

O'zga tillar guruhi rus tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15244305>

Annotsatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rniga ega bo'lgan shoira Saida Zunnunova she'rlaridagi betakrorlik, samimiylilik, ayollarga xos bo'lgan matonat, sadoqat haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar : o'zbek ayoli, sadoqat, vafo, halol mehnat, lirik qahraman, ona timsoli, ayol erki.

Kirish. O'zbek adabiyoti shunday bir chamanzorki, unda gul va chechaklar bisyor. Qancha yillar o'tsa-da shoir va ijodkorlar avlodi qayta-qaytadan bo'y cho'zib bormoqda. Ayollarga xos nazokat, matonat, sabr-toqat kabi xislatlarga ega b'lgan elimiz ardog'idagi shoiradir Saida Zunnunova. Shoira haqiqiy o'zbek ayoli. Unda millatimiz ayollariga xos bo'lgan sadoqat, sofdillik, ibo-hayo, mehr muhabbat tuyg'ulari mujassamdir. Iste'dotli shoira, jozibador, nasriy asarlar muallifi Saida Zunnunova 1926-yili Andijon shahrida xizmatchi oilasida dunyoga keldi. Adabiyotga muhabbat yosh shoirani O'zbekiston Milliy Universitetining filologiya fakultetiga yetaklaydi. O'qishni bitirgach qizg'in jurnalistik faoliyatga sho'ng'idi va badiiy ijodga butun borlig'ini berdi.

Ijodkor nafaqat shoiralik bobida, balki o'zini iqtidorli yozuvchi sifatida ham namoyon qiladi. Saida Zunnunova o'zbek xotin qizlarining hayotini o'rganish, ular turmushidagi mashaqqatli jihatlar va murakkabliklarga jamoatchilik e'tiborini jalb etish niyatida oila va muhabbat mavzusida ham sermahsul ijod qiladi. Shoira sevimli adibimiz Said Ahmadning turmush o'rtog'i edi. Said Ahmadning boshiga og'ir kunlar tushib, tuhmat bilan "xalq dushmani" sifatida qamalganda Saida opa umr yo'ldoshining hayotga, ijodga qaytishiga madad bo'ldi. O'zining boshiga tushgan sinovlarga ham bardosh berdi.

Undan turmush o'rtog'i xalq dushmani bo'lgani uchun oiolasidan voz kechishni talab qilishadi. Lekin sadoqatli shoira to'g'ri, halol va pok deb bilgan turmush o'rtog'ini kutdi.

Shoira ezgulik, adolat uchun kurashni, halol mehnatni o'zining maslagi deb bilgan. Bu dunyoqarash, e'tiqod, ko'ngil aqidasi barcha she'rlarning va asarlarining mahzunini tashkil etadi. Mehnat qilmasdan topilgan har bir narsani shoira o'g'irlik deb biladi. Bu esa uning quyidagi mashhur satrlarida o'z aksini topadi.

Kurashsiz, mehnatsiz shodlik kulguni

O'g'irlik mol deyman, qilaman hazar

Qalbimning parchasi sinmasa agar

Rozimasman birov hadya etsa zar.

Bu satrlarni Said Ahmad Saida Zunnunovanning she'rda chizilgan suratiga o'xshatadi.

Shoiraning ona yurtga muhabbati cheksiz edi. Shuning uchun ham uning ijodida "Mening Vatanim" alohida ahamiyatga ega.

Yuz yil tarifingni etsam mutassil

Baribir, sevgili yor rasmini

Chizmoqqa munosib rang topolmayin

Chamanda tentirab yurgan rassomday,

Seni tasviringa soʻz axtaraman
Soʻzlar sarasidan shu bugungiday
Yuz yilgi sheʼrimni yigʻsalar hamki,
Boʻlmaydi dildagi sevgimday asl
Ey, mening Vatanim, mening Vatanim!

Shoira ona Vatanning betakror ekanligini, uni taʼriflash uchun soʻzlar izlashini yuqoridagi satrlarda jamlangan. Vatan – ona kabi muqaddasdir. Ijodkor ham yuz yil yozgan sheʼrlarini yigʻib bersalar hamki, vatanga boʻlgan muhabbatini qalbidagi asl sevgidek tasvirlab berolmasligini aytadi/

Shoira mehribon ona ham edi. Saida Zunnunova va Said Ahmadning yolgʻiz qizlari va nabiralari boʻlgan. Ijodkorning “Surat bilan suhbat” asari iymoni butun onalarga, ayollrga atalgan.

Sarpo kiymading qaynata boʻlib,
Hech yoʻqsa, gullardan boʻlgin bahramand.
Odam keldi bugun hovlinga toʻlib,
Farzanding yoniga qoʻshildi farzand.

Ushbu dostonida turmush oʻrtogʻini qaynata sifatida sarpo kiyishi lirik qahramonning orzusi edi, biroq mashʼum urush uni armonga aylantirdi. Urush yillarida belida quvvati, yuragida shijoati boʻlgan yigitlar jangga joʻnadilar. Ular vatanni fashizm zulmidan ozod qilish yoʻlida jon olib, jon berdilar. Saida Zunnunova dostonida yuz koʻrsatgan timsol ana shunday mard yigitlar ruhi hisoblanadi.

Bir nafas qoʻymadim men seni yolgʻiz,
Bir dam tanholikka tashlaganim yoʻq.
Sensiz yigʻlamadim, kulmadim sensiz,
Sensiz koʻnglimni ham xushlaganim yoʻq.

Shoiraning his-tuygʻulari, kechinmalari urush yillaridagi ayollarimizning qalb nidosi boʻlib yangraydi. Shu asosda surat tilga kiradi va doston voqealari dialog vositasida tasvirlanadi. Surat va onaning hayoliy suhbatlari asosida kitobxon koʻz oʻngida urush fojialari, yetim qolgan goʻdaklar, beva ayollar qismati, shaxs va insoniyat taqdiri tarzida badiiy tadqiq etiladi. Ona fron orqasida turib kechani kecha, kunduzni kunduz demasdan ishlagani, shodligi, qaygʻusi bir boʻlgan ayollar haqidagi qahramonlar soʻzlasa, surat esa yetimlik qismati, urush maydonidagi qahramonlardan soʻzlaydi. Lirik qahramon va surat orasidagi suhbatlar urush yillari voqeligining dahshatli manzaralarini tasavvur etishga yordam beradi.

“Surat bilan suhbat” dostoni taniqli adibimiz Mirtemirning “Surat” dostoniga mohiyatan yaqin. Ikkala dostonning lirik qahramoni ham surat bilan suhbatlashadi. Biroq bu suratlar ayricha mazmunga ega. Saida Zunnunova soʻzlatgan surat urushda halol boʻlgan mardona halok boʻlgan jangchi yigitga tegishli. Mirtemir tasvirlagan surat esa urush olovlarini ortda qoldirib yurtga sogʻ omon qaytgan Toshlonga hiyonat qilgan ayolnikidir.

Saida Zunnunova sheʼriyatida ayol erki, ayol qalbi, ona armonlari, baxti, dili haqida yonib kuylagan. Shu bilan birga uning ijodida vatanga muhabbat, insoniylik, halol mehnat singari mavzular ham yetakchilik qiladi.

Taniqli yozuvchi va adib G'ofur G'ulom: "U xotin-qizlarga xos nazokat, iforday totimli lirasini bilan dillarimizni erkalatib, hordiqalarimizni yozib, mehnatga rag'batimizni toblantirib, idrokimizni go'zalliklar tomon yetaklaydigan fahmli shoiramiz bo'lib yetishadi",- degan iliq fikrlarni aytadi.

Bugungi kunda Toshkent shahrida joylashgan Adiblar xiyobonida buyuk yozuvchi Said Ahmad va shoira Saida Zunnunovalarning haykallari qad rostlab turibdi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek adabiyotiga kata hissa qo'shgan mard va sadoqatli ona, umr yo'ldosh, shoira bo'lgan Saida Zunnunova xotirasi mangu barhayot. U o'z she'rlari bilan adabiyotimizni boyittdi. Hozirgi kunda biz yoshlardan esa Saida Zunnunova she'riyatini o'rganish va ularni kelgusi avlodga yetkazishdan iborat.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saida Zunnunova: Tanlangan asarlar. Toshkent
2. Saidan Zunnunova "Surat bilan suhbat" Nilufar sheri to'plam